

LEVELS OF PREGNANCY INFLAMMATION IN PHOSPHOROGANIC PESTICIDE POISONING

Khaydarova Dilorom Safoevna

Mavlyanova Umida Nematovna

Lapasova Zebiniso Xidirovna

Department of Pathological Physiology

Samarkand State Medical Institute

Republic of Uzbekistan

Annotation: In chronic poisoning of rats with organophosphorus pesticide antio, a decrease in the level of acute inflammatory phase proteins - haptoglobin and ceruloplasmin, despite the phase changes in stimulation and inhibition at the beginning of poisoning.

Keywords: Organophosphorus compounds, nonspecific resistance, acute phase proteins, haptoglobin, ceruloplasmin

FOSFOROGANIK PESTITSIDLAR BILAN ZAHARLANISHDA YALLIG'LANISHNING O'TKIR FAZASI OQSILLARI DARAJASI

Xaydarova Dilorom Safoevna

Mavlyanova Umida Nematovna

Lapasova Zebiniso Xidirovna

Patologik fiziologiya kafedrası

Samarqand Davlat tibbiyot instituti

O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Kalamushlarni fosfororganik pestitsid antio bilan surunkali zaharlanishida yallig'lanishning o'tkir fazasi oqsillari - gaptoglobin va seruloplazmin darajasining zaharlanish boshlanishida stimulyatsiya va oxirida esa tormozlanishining fazali o'zgarishlariga qaramay, ushbu ko'rsatkichlarning pasayishi aniqlandi

Kalit so'zlar: fosfororganik birikmalar, nospetsifik rezistentlik, o'tkir fazali oqsillar, gaptoglobin, seruloplazmin

Kirish. Qishloq xo'jaligida fosfororganik birikmalardan (FOB) foydalanish inson salomatligiga ta'sir qiladi. Hosildorlikka intilib, FOBdan foydalanish qoidalari buzilganligi sababli, biosferaning ifloslanishi va ularning suv va oziq-ovqatga, so'ngra esa organizmga kirib, turli patologiyalarni keltirib chiqarishi bilan bog'liq muammolar rivojlanishiga olib keladi. Bir qancha mualliflar ko'rsatganidek, pestitsidlardan uzoq vaqt foydalanish sharoitida yashaydigan odamlarda patologiyaning rivojlanish mexanizmlarini o'rganish bugungi kunda dolzarbdir (Яфарова И.Х., 2010, Забродский П.Ф., 2016; Анучина А.В., 2019 va boshqalar)

FOB bilan zaharlanishda kasalliklarning patogenezini organizm qarshiligining pasayishiga asoslangan bo'lishi mumkin, bu nospetsifik rezistentlik, immunitet, asab va endokrin tizimlar bilan belgilanadi. Organizmdagi har qanday zararga javoban, buzilgan funktsiyalarni tiklashga qaratilgan reaksiyalarning butun majmuasi rivojlanadi. Shikastlanish orqasidan sodir bo'ladigan mahalliy va tizimli o'zgarishlarning yig'indisi yallig'lanishning o'tkir fazasi tushunchasini tashkil qiladi. O'tkir davrning eng muhim jihati - jigarda oqsillar biosintezining o'zgarishi. O'tkir fazali oqsillar (O'FO) kontsentratsiyasi sezilarli darajada o'zgarib turadi va zararlanish bosqichiga, kechishiga va darajasiga bog'liq.

Maqsad. Kalamushlar FOB antio bilan zaharlanganda ularning qonida O'FO gaptoglobin (GG) va seruloplazmin (CP) darajasini o'rganish.

Materiallar va usullar. Tajribalar og'irligi 180-200 g bo'lgan Wistar kalamushlarida o'tkazildi, ularga har kuni og'iz orqali 2 oy davomida 1/20 LD₅₀ (17,5 mg/kg) dozasi antio yuborilgan.

Natijalar. Qon zardobidagi GG va CP miqdorining dinamikasida ikki fazaning mavjudligi aniqlandi - ko'rsatkichlarning oshishi va pasayishi. Tadqiqotlarimiz natijalari boshqa mualliflarning ma'lumotlariga mos keladi (H. Baumann & J. Gauldie, 1994; Шевченко О.П., 1996; M. Kocaturk, 2010), ular turli patologik jarayonlarning (alkogolli va virusli gepatit, jigar saratoni, metanol bilan zaharlanish, rentgen nurlarining ta'siri) o'tkir davrida ushbu O'FO miqdorining ko'payishini va surunkali davrida ularning darajasining pasayishini aniqladilar.

Xulosa. FOB antio bilan surunkali zaharlanish o'tkir fazali oqsillar - gaptoglobin va seruloplazmin darajasining tajriba boshida stimulyatsiya va keyinchalik zaharlanish vaqti uzayishi natijasida tajribaning oxirida tormozlanishi bilan xarakterlanuvchi fazali o'zgarishlariga qaramay, ushbu ko'rsatkichlarning pasayishiga olib keladi. Qondagi O'FO darajasining oshishi ularning kamayishidan ko'ra ijobiyroq va organizmning himoya kuchlarining safarbarligini ko'rsatadi, deb hisoblanadi. Qondagi O'FO darajasining ko'p marta pasayishi kompensator-adaptiv reaksiyalarning buzilishini ko'rsatadi. Rezistentlikning ushbu omillarining pasayish darajasi pestitsidlardan foydalanish muddatiga bog'liq va bunday sharoitda ko'plab kasalliklarning rivojlanish mexanizmlaridan biri bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Анучина А.В. Токсическое действие пестицидов на организм человека и животных // Международный студенческий научный вестник. – 2019. – № 1. – С. 1-1
2. Забродский П.Ф. Иммунотоксикология фосфорорганических соединений / П.Ф. Забродский. – Саратов: Саратовский источник, 2016. - 289 с.
3. Шевченко О.П Белки острой фазы воспаления. - Лаборатория. - 1996; №1. - С. 3-6.
4. Яфарова И.Х. Патогенетические механизмы нарушений иммунного статуса фосфорорганическими соединениями в сочетании с антидотами и их коррекция: диссертация ... кандидата медицинских наук: / [Место защиты: ГОУВПО "Саратовский государственный медицинский университет"]. - Саратов, 2010. - 173 с.
5. H. Baumann and J. Gauldie. "The Acute Phase Response". - Immunology Today, Vol. 15, No. 2, 1994, pp. 74-80. DOI:10.1016/0167-5699(94)90137-6.
6. King A.M., Aaron C.K. Emerg Organophosphate and carbamate poisoning / A.M. King et all. // Med. Clin. North Am.- 2015.- Vol. 33, N 1.- P. 133-151.
7. M.Kocaturk, S.Martinez, O.Eralp, A.Tvarijonavičiute, J.Ceron and Z.Yilmaz

8. Journal of Small Animal Practice (2010), № 51, P. 478–483

DOI:10.1111/j.1748-5827.2010.00965.x

Accepted: 19 April 2010; Published online: 12 July 2010